

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/27.09.2024.Ped.05.07 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

TOJIYEV XAKIMJON XOLIQOVICH

**BO‘LAJAK CHAQIRIQQACHA HARBIY TA’LIM
O‘QITUVCHILARINING KASBIY-PEDAGOGIK TAYYORGARLIGINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences

Tojiyev Hakimjon Xoliqovich

Bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish metodikasi..... 3

Тожиев Хакимжон Холикович

Методика развития профессионально-педагогической подготовки будущих учителей допризывного военного обучения..... 23

Tojiev Khakimjon Khaliqovich

Methodology for the development of professional and pedagogical training of teachers of military education before the upcoming conscription..... 45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works49

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/27.09.2024.Ped.05.07 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**
FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

TOJIYEV XAKIMJON XOLIQOVICH

**BO‘LAJAK CHAQIRIQQACHA HARBIY TA’LIM
O‘QITUVCHILARINING KASBIY-PEDAGOGIK TAYYORGARLIGINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PHD/Ped7542 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (resume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.fdu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Karimova Muqaddas Otajonovna
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Azimova Ziyoda Ergashevna
pedagogika fanlari doktori, professor
Xonimqulov Anvar Raximqulovich
pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi PhD.03/27.09.2024.Ped.05.07 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil "1" 12 kuni soat 11 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy, Gender tengligi tadqiqotlar markazi, 1-qavat, majlislar zali. Tel: (+99873) 244-44-02; faks:(+99873) 244-44-93; e-mail: fardu_info@umail.uz)

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (625 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. ARM binosi. Tel: (+99873) 244-44-93 e-mail: fardu_info@umail.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 17" 11 kuni tarqatildi.

(2025-yil 17" 11" 44" - raqamli reyestr bayonnomasi).



B.Sh.Shermuhhammadov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
pedagogika fanlari doktori, professor

B.X.Baydjanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

B.Q.Qurbonova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ta'lim tizimlarining modernizatsiyasi, sohalararo integratsiyaning rivojlanishi va globallashuvning jadallashuvi harbiy ta'lim sohasida ham zamonaviy yondashuvlardan foydalanishni talab etmoqda. Mazkur yondashuvlarning amaliy tatbiqi natijasida kasbiy-pedagogik tayyorlov jarayoni zamonaviy o'quv tamoyillari bilan uzviy integratsiyalashib, chaqiriqqacha harbiy ta'lim sohasida faoliyat yurituvchi pedagoglarning raqamli texnologiyalar bo'yicha bilim saviyasini, metodik mustaqilligini hamda kasbiy-pedagogik jihatdan moslashuvchanlik salohiyatini rivojlantirish uchun zarur sharoitlar shakllanadi. Ayniqsa, chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilari tomonidan egallanadigan nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar va zaruriy malakalarni shakllantirish, shuningdek, ularning kasbiy-pedagogik potensialini oshirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar nazariy-metodologik va amaliy qirralar nuqtai nazaridan muhim ilmiy-innovatsion ahamiyat kasb etadi.

Dunyo miqyosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligining rivojlantirish masalasi, bugungi zamonaviy ta'lim tizimlarida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar, harbiy sohaga oid global strategik yo'nalishlar hamda zamonaviy yondashuvlarning rivojlanishi bilan bevosita bog'liq holda muhim ilmiy ahamiyatni kasb etmoqda. Bugungi kunda rivojlangan bir qator xorijiy mamlakatlarda harbiy ta'lim sohasida o'qituvchilarni tayyorlash bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqilgan. Ushbu dasturlar orqali talabalarni kasbiy jihatdan tayyorlashda ularni ijtimoiy-axloqiy qarashlariga, milliy g'ururiga, jismoniy tayyorgarligiga hamda qurol-aslaha va harbiy texnikalar bilan ishlash malakasini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini muntazam ravishda oshirib borish hamda ularni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflariga yo'naltirish bilan bog'liq ta'lim strategiyalari ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish masalasi bugungi ta'lim sohasidagi islohotlar, harbiy kasbga oid global tendensiyalar, zamonaviy pedagogik yondashuvlar hamda ta'lim sifatini ta'minlash va milliy kadrlarni tayyorlash jarayonida "Yuqori malakali harbiy kadrlarni tayyorlash tizimini muntazam ravishda takomillashtirib borish, o'quv jarayonlariga harbiy tayyorgarlikning zamonaviy usullarini keng joriy etish"¹ muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayon esa harbiy yo'nalishdagi pedagoglarning kasbiy tayyorlik darajasini oshirishga xizmat qiluvchi zamonaviy yondashuvlarni konseptual jihatdan ishlab chiqish, ularning tarkibiy mazmuni, bosqichma-bosqich amalga oshirish mexanizmlari, metodik yondashuvlar hamda ta'sirchan didaktik vositalarni chuqur tahlil qilish, shuningdek, bu komponentlarni amaliy faoliyatga samarali integratsiyalash zaruratini keltirib chiqaradi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.03.2025-y., 06/25/56/0274-son.

O‘zbekiston Respublikasini 2020-yil 23-sentabrdagi 637-sonli “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston-2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2019-yil 28-iyundagi PQ-4375-son “O‘smirlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zahirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevraldagi 140-son “Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamizda o‘qituvchilarni kasbiy shakllanishi va ularni rivojlanish muammolari bo‘yicha A.R.Xodjabayev, R.X.Djurayev, N.A.Muslimov, U.I.Inoyatov, M.B.Urazova, O.Q.Haydarova, D.O.Ximmataliyev, O.A.Quysinovlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida yoritilgan. Ta’lim jarayonida texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha O‘.Q.Tolipov, Q.T.Olimov, N.N.Azizxodjayeva, A.A.Abdugodirov, U.N.Nishonaliyev, X.Sh.Qodirov, Sh.N.Majidova, R.R.Ishmuxammadov, G.N.Ibragimova, U.Sh.Begumqulovlar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan. Vatanparvarlik tarbiyasi masalalari M.X.Abilov, S.A.Axatov, S.Yu.Axrоров, N.A.Jalilov, A.Bo‘tayev, R.S.Samarov, I.M.Saidov, Sh.Sh.Ubaydullayev, A.Y.Sotvoldiyev, S.S.Yarashev, U.S.Temirov, N.J.Eshnayeve va B.B.Gofurovlar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) davlatlarining olimlaridan V.M.Azarova, V.A.Glebov, A.A.Bashlakova, O.V.Dobrolyubsev, N.N.Yefimov, V.A.Jilsov, D.V.Mesheryakov, B.A.Glebov, L.A.Zatsepilova, O.G.Pozdnyakov, T.A.Sinitsina va O.N.Ovsyannikovalar tomonidan harbiy ta’limning pedagogik imkoniyatlarini takomillashtirish va kreativ fikrlashning rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Xorijlik olimlar D.B.Raven, M.M.Martin, A.I.Brown, A.Blum, F.Percival, S.Jasqueline, E.Rogerslar yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish va rivojlantirish muammolarini tadqiq etishgan.

O'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish muammosi bilan bog'liqlik turli soha olimlari tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsada, biroq harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish masalasi maxsus tadqiq etilmagan. Harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish mazmuni, bosqichlari, metodlari hamda vositalarini o'rganish, kasbiy salohiyatini sakllantirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqish zarurati tadqiqotimiz mavzusini belgilab berdi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Harbiy ta'lim fanlarini o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar va rivojlanish tendensiyalari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: harbiy ta'lim yo'nalishi o'quv jarayonida bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish jarayoni mohiyati va mazmunini yoritib berish;

bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish tuzilmasi va komponentlarini aniqlashtirish;

bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirishning modelini ishlab chiqish;

bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti mazkur ilmiy izlanish doirasida tadqiqot obyekti sifatida harbiy yo'nalishdagi ta'lim beruvchi pedagog kadrlarning kasbiy va metodik jihatdan tayyorlanish jarayoni asos qilib olingan bo'lib, tajriba-sinov ishlarida Farg'ona davlat universiteti, Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti hamda Buxoro davlat pedagogika institutining harbiy ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan jami 494 nafar talaba ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmeti sifatida chaqiriqqacha harbiy ta'lim beruvchi pedagoglarning kasbiy-pedagogik salohiyatini oshirishga doir tarkibiy mazmun, tashkiliy shakllar, metodik yondashuvlar hamda ta'sirchan o'quv vositalari majmui talqin etiladi.

Tadqiqotning usullarini belgilash jarayonida mavzuga doir tegishli ilmiy manbalar, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi, shuningdek, yig'ilgan axborot asosida kontent tahlil, suhbatlashuv asosidagi ma'lumot yig'ish, kuzatuv, so'rovnomalar hamda matematik-statistik tahlil kabi empirik va analitik usullardan kompleks foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'quv jarayonini pedagogik loyihalashda nazariya va amaliyot uzviyligi, kasbiy faoliyatning mazmuniy ko'rsatkichlarini sintezlash, texnologik yondashuv va pedagogik shart-sharoitlar tizimini joriy etish tamoyillarini ta'minlash asosida bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan o'quv-metodik ta'minoti takomillashtirilgan;

bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish modeli ijodiy-faol pedagogik muhitni yaratishga qaratilgan didaktik funksiyalar birligini ta'minlash orqali ta'limning imitatsion-variativ va vizual-amaliy imkoniyatlariga dinamik ustuvorlik berish asosida ishlab chiqilgan;

bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining faoliyati tuzilmasi elementlari (konstruktiv, tashkiliy, kommunikativ, ilmiy-metodik) hamda kasbiy tayyorgarligi komponentlari (motivatsion, bilish, faoliyatli, shaxsiy) mazmuni "Flipped Class" texnologiyasi asosida takomillashtirilgan;

kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishning maqsad, mazmun, jarayon va natijaviy-baholash komponentlarini texnologik yondashuv asosida integrativ joriy etish natijasida bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlanganligi darajalarini baholash mezonlarini ishlab chiqishga oid ma'lumotlar takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar asosida "Saf tayyorgarligi" nomli o'quv qo'llanma yaratilgan;

bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish tuzilmasi va komponentlari aniqlashtirilgan;

"Umumharbiy nizomlar" nomli darslik nashr ettirilgan va amaliyotga tadbiiq etilgan;

bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirishga doir ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Bo'lajak chaqiriqqacha harbiy yo'nalishdagi pedagog kadrlarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish jarayonida texnologik yondashuvning konseptual mezonlariga tayangan holda tashkil etilgani, qo'llanilgan zamonaviy innovatsion metodlarning ilmiy-nazariy asoslarda dalillanganligi, ilgari surilgan tahliliy fikrlar va tajriba-sinov amaliyotlarining samaradorligi matematik-statistik modellash vositalari orqali aniqlangani, ilgari surilgan xulosa hamda tavsiyalarning real pedagogik amaliyotga tatbiq qilingani, shuningdek, olingan natijalar tegishli mutasaddi tashkilotlar tomonidan ekspertiza asosida e'tirof etilganligi ushbu tadqiqotning dolzarbligi va ishonchliligini ifodalaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Mazkur tadqiqotning ilmiy-nazariy ahamiyati, avvalo, bo'lajak harbiy yo'nalishdagi ta'lim beruvchi mutaxassislarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini takomillashtirishga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi didaktik-psixologik omillar va pedagogik sharoitlarning aniqlab berilganligi, kasbiy shakllanish jarayonini takomillashtirishga qaratilgan modelning ishlab chiqilib, amaliy jihatdan asoslab berilganligi, zamonaviy yondashuvlar, pedagogik texnologiyalar va innovatsion vositalar asosida kasbiy-pedagogik tayyorgarlik metodikasining takomillashganligi, shuningdek, texnologik yondashuvga asoslangan rivojlantirish istiqbollarning nazariy-analitik asoslanishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy qadri esa, bo'lajak harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy-uslubiy tavsiyalar tizimi ishlab chiqilgani, kasbiy tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun zarur bo'lgan baholash indikatorlari va mezonlari takomillashtirilgani, o'quv mashg'ulotlarini texnologik yondashuv asosida samarali tashkil etish bo'yicha metodik asoslar ishlab chiqilgani, shuningdek, o'quv-me'yoriy hujjatlar, fan dasturlari va rejalashtirish hujjatlari mazmunini yangilashda, ularni oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayoniga joriy etish imkoniyati bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish metodikasi bo'yicha olingan tadqiqot natijalari asosida:

o'quv jarayonini pedagogik loyihalashda nazariya va amaliyot uzviyligi, kasbiy faoliyatning mazmuniy ko'rsatkichlarini sintezlash, texnologik yondashuv va pedagogik shart-sharoitlar tizimini joriy etish tamoyillarini ta'minlash asosida bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan o'quv-metodik ta'minotini takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalaridan chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalari uchun "Saf tayyorgarligi" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 9-sentyabrdagi 302-sonli buyrug'i, 302-0082-raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, ta'lim-tarbiya nazariyasi va amaliyotida bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish mazmuni takomillashtirilgan.

bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish modeli ijodiy-faol pedagogik muhitni yaratishga qaratilgan didaktik funksiyalar birligini ta'minlash orqali ta'limning imitatsion-variativ va vizual-amaliy imkoniyatlariga dinamik ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalaridan chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalari uchun "Umumharbiy nizomlar" nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 9-sentyabrdagi 302-sonli buyrug'i, 302-0081-raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish imkoni yaratilgan;

kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishning maqsad, mazmun, jarayon va natijaviy-baholash komponentlarini texnologik yondashuv asosida integrativ joriy etish natijasida bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlanganligi darajalarini baholash mezonlari ishlab chiqishga doir amaliy taklif va tavsiyalaridan chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalari uchun "O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari umumharbiy nizomlari" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 9-sentyabrdagi 302-sonli buyrug'i, 302-0083-raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetentligini takomillashtirishning o'quv-metodik ta'minoti takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot ishi natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 24 ta ilmiy ish, shulardan, 1 ta darslik, 2 ta o'quv qo'llanma, 1 ta monografiya, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 20 ta maqola, shundan 14 tasi respublika va 6 tasi xalqaro nashrlarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat, asosiy matn 140 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarining amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi va ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari"** deb nomlangan birinchi bobida bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish va ta'limni texnologiyalashtirishning metodologik, ilmiy-nazariy asoslari, texnologik yondashuv asosida bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy pedagogik tayyorgarligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlar haqida so'z yuritilgan. O'rganilayotgan muammo doirasida bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik faoliyatini o'ziga xos xususiyatlariga alohida e'tibor qaratildi.

Bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarlik faoliyatining maqsadi va vazifalari davlatimizning harbiy ta'lim sohasidagi mafkurasi va siyosati, Qurolli kuchlarni isloh qilinishi va rivojlantirish masalalari bilan uzviy bog'liq bo'lib, harbiy ta'lim va soha uchun kompetentli o'qituvchilarni tayyorlash muammolarini hal etishda yangicha yondashuvlarni talab qiladi. Bunday sharoitda nazariy va amaliy muammolarni hal qilishda harbiy ta'lim o'quv fanlarining roli sezilarli darajada oshib, ularni mazmuniga qo'yiladigan zamonaviy talablar ham ortib boradi.

Bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining faoliyatini o'ziga xosligi ta'lim oluvchilarni harbiy xizmatga tayyorlash, ko'p qirralilik funksional mas'uliyat doirasining kengligi bilan bog'liq bo'lib, ularning har biri o'z mazmuniga ko'ra ijodiy fikrlashni taqozo etadi. Binobarin, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni puxta o'zlashtirgan, harbiy ta'lim samaradorligini oshirish bo'yicha strategik vazifalarni izchil amalga oshirishga qodir bo'lajak chaqiriqqacha

harbiy ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash orqali harbiy ta'lim sohasidagi pedagogik muammolarni hal etish mumkin.

Tadqiqot mavzusining asosiy g'oyasiga muvofiq mazkur yo'nalishda olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini tahlil etish asosida ta'lim jarayonini zamonaviy talablardan kelib chiqib tashkillashtirish lozim. Darhaqiqat, ta'lim jarayonini tashkil etishda pedagogik salohiyat bilan bir qatorda mashg'ulotni moddiy texnik ta'minotini sifati ham muhim rol o'ynaydi. Pedagoglar va talabalarning mashg'ulotlarga tayyorgarligi, o'zlashtirishi, ularni bilim va ko'nikmalar bilan qurollanishi zamon talablaridan kelib chiqib tayyorlanishi ham muhim ahamiyatni kasb etadi. A.Sotvoldiyevning fikricha, harbiy mashg'ulotlarni olib borishdagi ta'lim berish ham xuddi boshqa soha fanlaridagi kabi ta'lim jarayoni (mashg'ulot rahbarining faoliyati) va o'zlashtirish jarayoni (talaba, faoliyati)dan iborat bo'ladi.

S.Yarashevning fikricha, zamonaviy harbiy o'quv darslarida texnologik kompetentlik faoliyatini joriy etish – innovatsion usulni qo'llash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Innovatsion texnologiyalar harbiy ta'lim jarayoni hamda o'qituvchi va bo'lajak ofitserlar faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

N.Muslimovning tadqiqotlari pedagogik va texnik bilimlarning integratsiyasi asosida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash, uning kasbiy-pedagogik faoliyatini modellashtirish, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonini standartlashtirishning metodik asoslari, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini baholash metodikasi va pedagogika fanlarining bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy shakllantirishdagi imkoniyatlari kabi muammolarning yechimiga qaratilgan.

Kasbiy tayyorgarlik o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi. U aniq maqsadlar asosida rejalashtirilgan muayyan bosqichlarni o'zida qamrab oladi. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy tayyorgarlikning shakllanishi dastlab kasbga xos tasavvur tushunchalarni tarkib topganligi bilan belgilansa, keyinchalik mutaxassislikka oid bilim, ko'nikma va malakalarining o'zlashtirilishi, kasbiy sifatlarining qaror topishi hamda kasbiy moslashishi bilan izohlanadi. Bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligi uning integrativ sifati bo'lib, egallagan pedagogik maxsus bilimi va harbiy kasbiy kompetentsiyalari asosida jangovor mashqlarni bajarish, texnik vositalarni ishlatish va texnik xizmat ko'rsatishga amaliy tayyorgarligi bilan belgilanadi.

Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy bilim deganda – aniq mehnat faoliyati doirasida bajariladigan ishlar uchun zarur bo'lgan axborotlar va o'zlashtirilgan nazariy ma'lumotlar birlashmasi tushuniladi. Bo'lajak o'qituvchilarning o'zlashtirishi lozim bo'lgan kasbiy bilimlar mutaxassis shaxsining sifat darajasiga qo'yiladigan malakaviy talablar mazmunidan kelib chiqib belgilanishi kasbiy moslashtirish jarayonining samaradorligini belgilovchi muhim mezon sanaladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini samarali amalga oshirish, kasbiy bilim va ko'nikmalarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishdagi asosiy omil hamda kasbiy sifatlarini rivojlantirish masalasi tadqiqot doirasidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot jarayonida bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda ularning umumiy kasbiy va shaxsiy sifatleri aniqlashtirildi:

- motivatsion xislatlar – kasbiy faoliyatni samarali tashkil etishga undovchi rag‘bat, ya‘ni eng yangi bilimlarni o‘zlashtirishga intilish, yangi axborotlarni izlash va egallash ehtiyoji, ilg‘or tajribalarni o‘rganish ehtiyoji, ilmiy-texnik taraqqiyotning asosiy yo‘nalishlarini bilishga intilish, o‘quv mashg‘ulotlar davomida qo‘llanilayotgan yangi materiallar, texnika va texnologiyalar haqida bilimlarga ega bo‘lish;

- intellektual salohiyatga – pedagogik fikrlash (pedagogik dalil, hodisa, jarayon hamda tizimlarni tahlil qila olish, pedagogik vaziyatlarda ijodiy yondashuv, moslashuvchan, harakatchan), pedagogik ziyraklik, pedagogik bashorat qila olish, kuzatuvchanlik, pedagogik tasavvur, pedagogik ijodkorlik, texnologik jarayonning asoslari, analiz, sintez va boshqalar;

- irodaviy sifatlari – pedagogik muloqotda chidam va o‘zini tutib tura olishda, pedagogik faoliyatni amalga oshirishda, pedagogik maqsadlarga erishishda, o‘z faoliyatining ahamiyatini oshirishda, o‘zligini rivojlantirishda, texnik fikrlashda, texnik obyektlarni ishga tushirishda, sozlashda, ta‘mirlashda, rejalashtirilgan texnologik jarayonni oxirigacha yetkazishdagi qat‘iylilik;

- hissiy sifatlariga – talabalarning o‘y-kechinmalari, quvonch va tashvishlarini tushuna olish, hamfikrlik, mamnunlik, ochiqlik hissiyoti, talabalarning xususiyatlarini e‘tiborga olish, texnik obyektlar hamda amaliy harakatlarning murakkabligini his qilish, texnologik jarayonlarni, izlanuvchanlik, texnik ijodkorlik, shuningdek, ruhiy muhitni boshqara olish;

- amaliy ko‘nikmalarga egaligiga – pedagogik qobiliyatlar, pedagogik ko‘nikmalarni rejalashtirish, amaliy mashqlarni bajara olishi, sozlash, nuqsonlarni bartaraf etish, texnik obyektlarga ishlov berish ko‘nikmalari, bir harakat holatidan ikkinchi harakat holatiga ko‘chira olishi, harakat va amallarni yangi vaziyatlarda qo‘llay olishi, yangi axborotlar ichida tez yo‘nalish olishi, o‘zini kasbiy-axloqiy jihatdan tutishi;

- o‘z-o‘zini boshqara olishiga – faoliyati va o‘zini tahlil qilish, baholash, individual muloqot metodini ijtimoiy-kasbiy sohadagi tajribalar bilan qiyosiy baholash, ijodiy jarayonda refleksiya qila olish qobiliyati, o‘z individualligining rivojlanishi, kasbiy faoliyati va xulqidagi shaxsiy fazilat hamda kamchiliklarini aniqlay olish qobiliyati, kasbiy rivojlanishda davom etish imkoniyatlarini aniqlash ko‘nikmasi va unga nisbatan o‘z munosabatini boshqara olish.

Ilmiy pedagogik manbalarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, “pedagogik shart-sharoitlar” tushunchasiga, o‘qituvchilik faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui sifatida qaraladi.

Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta‘lim o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligining rivojlantirishni eng maqbul pedagogik shart-sharoitlari sifatida quyidagilar belgilandi: bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta‘lim o‘qituvchilarining ta‘lim muassasasidagi harbiy ta‘lim o‘quv jarayoniga moslashuvini ta‘minlash, tanlagan kasbiga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish hisobiga ularda o‘quv motivatsiyasini oshirish, bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta‘lim o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish modelini yaratish, harbiy ta‘lim fakultetidagi o‘quv fanlarining kasbiy yo‘nalganligini va kasbiy-pedagogik tayyorlashning o‘quv-metodik ta‘minotini ta‘minlash, talabalarning o‘qituvchilik

faoliyati uchun zarur bo'lgan kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy sifatlar va kompetensiyalarni egallashi, bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish vazifasini birgalikda amalga oshirish hamda ishonchli muloqot va o'zaro foydali hamkorlikni nazarda tutuvchi ijtimoiy hamkorlikni mustahkamlash. Ta'lim jarayonini pedagogik loyihalash, o'quv me'yoriy va metodik ta'minotni takomillashtirish asosida bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirishga yo'naltirilgan harbiy ta'lim muhiti va o'quv-metodik ta'minoti yaratildi.

Dissertatsiyaning **“Texnologik yondashuv asosida bo'lajak chaqiriq - qacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida texnologik yondashuv asosida bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish modeli, harbiy ta'lim jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash imkoniyatlari, texnologik yondashuv asosida bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish metodikasi ochib berilgan.

O'qituvchilarning shaxsiy modelini tuzish va uning asosida kasbiy pedagogik tayyorgarlikni takomillashtirish muammosi taniqli pedagog M.Skatkin tomonidan tadqiq etilgan. M.Skatkinning fikricha, “O'qituvchi shaxsining umumlashgan modeli–pedagogik faoliyat tuzilmasini tizimli tahlil asosida tuzishdir”.

Ilmiy-tadqiqot ishlarini tahlil etish, pedagogik qarashlarga ijodiy yondashgan va olib borilgan tadqiqotlarimiz natijalariga asoslangan holda, bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish modeli takomillashtirilgan (1-rasmga qarang).

Ushbu model to'rtta blok (maqsadli blok, metodologik blok, jarayonli blok va natijaviy blok)larga ajratildi:


Maqsadli blok (ijtimoiy ehtiyoj, maqsad, tadqiqotning ilmiy-nazariy asoslari, mutaxassislik fanlari integratsiyasi).

Metodologik blok quyidagilardan iborat: tamoyillar – amaliy yo'nalanganlik, fanlarni o'zaro integratsiyasi, mujassamlik, modellashtirish, propedevtika, maqsadga muvofiqlik, uzluksizlik va intensivlik, yondashuvlar – metodologik, texnologik, shaxsga yo'naltirilgan, tizimli, komprtensiyaviy va usullar – tizimli, tahlil qilish, to'rt pog'onali, ko'nikma va malakalarni shakillantirish.

Jarayonli blokida (“umumharbiy nizomlar” va “Saf tayyorgarligi” fanlarini takomillashtirish, bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorligini rivojlantirishni metodik asoslari (mazmun, shakl, metod va vosita) hamda bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorligini rivojlantirish texnologiyalari o'rin olgan.

Natijaviy blok baholash mezonlari (motivatsion, faoliyatli va kasbiy - shaxsiy) hamda natija.

Modelning maqsadli bloki to'rtta darajada bo'lib ular quyidagilar: ijtimoiy ehtiyoj (bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchisini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash DTS'lari va malaka talablari); maqsad (bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish).



1-rasm. Bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish modeli

Tadqiqotning ilmiy-nazariy asoslari: harbiy-pedagogik nazariya, oliy harbiy-kasbiy ta'lim, bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash nazariyasi, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish g'oyasi, harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy sifatlari; Mutaxassislik fanlari: "Umumharbiy nizomlari" va "Saf tayyorgarligi" o'quv fanlarining o'quv-metodik ta'minotini takomillashtirishdan iborat.

Modelning jarayonli bloki uchta bo'limdan iborat bo'lib ular: "Umumharbiy nizomlar" va "Saf tayyorgarligi" fanlarini takomillashtirishda bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilari kasbiy-pedagogik tayyorgarligining rivojlantirishni pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash, bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish loyihasini ishlab chiqish hamda bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirishda pedagogik-psixologik komponentlaridan tashkil topgan.

Modelning jarayonli blokidagi bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorligini rivojlantirishni metodik asoslari deb nomlangan bo'limida quyidagilar o'rin olgan:

Mazmun-pedagogik nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, axloqiy-ruhiy tayyorgarlik, kasbiy tayyorgarlik, kommunikativ kompetensiyalar, harbiy-texnik tayyorgarlik

Shakl-ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlar dala-o'quv amaliy mashg'ulotlar Kasbiy mahorat tanlovlari va seminar-treninglar, mustaqil ta'lim va o'z-o'zini rivojlantirish.

Metod-interaktiv metodlar, amaliy va modulli o'qitish metodlari, refleksiv ta'lim metodi, bahs munozara, debat, muammoli vaziyat, loyiha, akademik munozara.


Vosita-taqdimotlar, audiodarslar, videodarslar, pre-vodkasting, podkast va vodkast.

Modelning jarayonli blokidagi bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorligini rivojlantirish texnologiyalari deb nomlangan bo'limida innovatsion texnologiyalar, modulli o'qitish, muammoli o'qitish, kompyuterli o'qitish, kontekstli o'qitish, Flipped klass texnologiyalari (amaliy mashqlar va muammoli audio, video topshiriqlar, portfolio) asosida bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish belgilangan. Natijaviy blokini baholash mezonlari bo'limida (motivatsion, faoliyatli va kasbiy-shaxsiy) hamda natijani o'z ichiga oladi. Bu mezonlarga asoslanib, o'zlashtirishning yuqori, yaxshi va o'rta darajalari ishlab chiqilib, rivojlanganligi baholanadi. Natijada, bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlanishiga erishildi.

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar mashqlarni bajarishlari, me'yorlar va harakat usullarini bajarish texnikasini o'rganishlari va mustahkamlashlari, shuningdek qurilmalar, jihozlangan maydonchalar, mashg'ulot joyi va qurol-aslahalar, shaxsiy himoya vositalari, sport snaryadlari va anjomlaridan foydalangan holda o'tkazishlari lozim. "Umumharbiy nizomlari" va "Saf tayyorgarligi" o'quv

fanlarini asosi, amaliy mashg'ulotlarni samarali tashkil etish hamda bevosita ta'lim usul va metodlarini to'g'ri tanlashga bog'liqdir.

Yuqoridagi talablardan kelib chiqib bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirishda "To'rt pog'onali usul"dan foydalanish orqali ularni pedagogik-psixologik komponentlarini aniqlashga muvofiq bo'ldik.



2-rasm. O'qitishning to'rt pog'onali usuli

O'qitishning to'rt pog'onali usuli – bu usul AQShda paydo bo'lib sanoat korxonalarida konveyerli ishlab chiqarish ko'paygan sari shunday o'rgatish usullari zarur bo'lib qoldiki, ishchilar bir xilda qaytariladigan qo'l ko'nikmalarini iloji boricha tez va mukammal ravishda o'rganib olishlari kerak edi. Bu usulda amaliy ko'nikmalarini o'zlashtirish jarayoni to'rt pog'ona doirasida kechadi.

O'qitishning to'rt pog'onali usuli asosida "Saf tayyorgarligi" o'quv fanidan "Saf va uni boshqarish" mavzusi bo'yicha amaliy mashg'ulot dars ishlanmasi ishlab chiqildi. Bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy pedagogik

tayyogarlugini rivojlantirishni pedagogik-psixologik komponentlarini “To‘rt pog‘onali usul” asosida amalga oshirdik (2-rasmga qarang).

Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta‘lim o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyogarlugini rivojlantirishni pedagogik-psixologik komponentlarini ikki bosqichda yani, “To‘rt pog‘onali usul”ning nazariy bosqichlari va “To‘rt pog‘onali usul”ning qo‘llanilishi bilan aniqlandi va tajriba-sinov ishlarida asos bo‘ldi. Zamonaviy ta‘limda innovatsion yondashuvlardan biri bo‘lgan “Flipped-Class” (ag‘darilgan sinf) texnologiyasi o‘quv jarayonini tashkil etishda an‘anaviy dars va uy vazifasi tartibini o‘zgartirish orqali ta‘lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyada o‘quv jarayonining asosiy qismlari – ya‘ni dars va uyga vazifaning o‘rni almashadi. An‘anaviy darslarda o‘quvchilar yangi bilimni dars jarayonida o‘zlashtiradilar va uyga vazifa sifatida mustahkamlovchi topshiriqlar beriladi. “Flipped-Class” texnologiyasida esa bu jarayon teskarisiga amalga oshiriladi. Avvalo, o‘quvchilar darsdan oldin uyda mustaqil ravishda mavzu bo‘yicha taqdim etilgan videodarslar, audioyozuvlar, grafik materiallar, slydlar, testlar yoki boshqa interfaol resurslar yordamida yangi bilimni o‘zlashtiradilar. Ushbu jarayon o‘quvchilarga o‘zlari uchun qulay vaqtda, qayta-qayta ko‘rib chiqish, tushunmagan joylarini to‘xtatib tahlil qilish imkonini yaratadi. Bu bosqich o‘quvchilarning mavzuga tayyorlanish bosqichi bo‘lib, kelgusi dars uchun zarur bilim zaminini shakllantiradi.

Keyingi bosqich – sinfdagi dars jarayonida esa o‘qituvchi o‘quvchilar bilan birgalikda avvalgi bosqichda o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo‘llashga e‘tibor qaratadi. Bu yerda o‘quvchilar guruhlarda ishlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish, loyihalash, muhokama, tahlil, bahs-munozara kabi faol uslublar orqali o‘rgangan bilimlarini mustahkamlab, chuqurlashtiradilar. O‘qituvchi esa yo‘naltiruvchi va fasilitator (jarayonni boshqaruvchi) sifatida harakat qiladi.

